



NIKOH MUNOSABATLARINI QAYD ETISH TARTIBI VA ASOSLARI

Sh.Mamatov

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Fuqarovich-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi
katta leytenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13374239>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2024

Accepted: 15th August 2024

Published: 18th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Mamlakatimizda oilalar mustahkamligini, ularda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, jamiyat farovonligini yuksaltirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyamizda ham oila to'g'risida alohida bob ajratilib, oila manfaatlari muhofaza qilinayotganligi va oila mustahkamligi tamoyillari belgilanib, kafolatlanganligi bejiz emas.

“Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz oila va nikoh munosabatlarining o'rni beqiyosdir.”

O'zbekiston Respublikasi
birinchi Prezidenti
I.A.Karimov

Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo'lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida: - Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. – deb yozilgan. Fikrimizcha, tomonlar deyilganda biz ko'proq fuqarolik huquqida majburiyat huquqini keltirib chiqaradigan asoslardan biri - shartnomani tuzgan shaxslarni tushunamiz. Agar unda nikoh erkak bilan ayolning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi, deb yozilsa to'g'ri bo'ladi, chunki nikoh mulkiy shartnoma xarakteridagi kelishish bo'lmay erkak bilan ayol o'rtasida tuziladigan, bir umrga mo'ljallangan shaxsiy ittifoq, ahdomadir.

Amaldagi oila qonunchiligi nikohning tuzilish tartibiga, ya'ni uni davlatning tegishli organlari tomonidan rasmiylashtirilishiga alohida e'tibor beriladi. Oila kodeksining 13-moddasiga binoan, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Shunday nikohgina huquq va majburiyatni vujudga keltiradi. Nikohning tegishli davlat organida qayd etilishi uning vujudga kelganligini isbotlovchi birdan-bir dalildir. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikohni tegishli davlat organlarida rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari» bilan tartibga solinadi. Fuqarolik holati

dalolatnomalarini yozish (FH DYo) organi ariza qabul qilganida ularni nikohni qayd etish tartibi va shartlari bilan tanishtirishi, kelgusidagi er-xotin va ota-ona sifatidagi huquq va majburiyatlarini ularga tushuntirishi, bir-birlarining sog'lomlik holatlaridan va oila qoidalardan xabardor ekanliklariga ishonch hosil qilishi kerak. Nikohga kiruvchilar nikohga to'sqinlik qiladigan holatlarni yashirganliklari uchun javobgar bo'lishlari haqida ogohlantiriladilar. Nikohni tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida, ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Bunday muddatni belgilashdan maqsad bir-birlari bilan yaxshi tanish bo'lmagan shaxslarning yengiltaklik qilib, shoshmashosharlik bilan nikohdan o'tishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bir oy muddat ichida nikohga kiruvchilar nikoh tuzishga bo'lgan o'z xohishlarini yana tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, bu muddat davomida nikohni qayd etishga monelik qiladigan ba'zi holatlar ham aniqlanishi mumkin. Bu davrda yoshlarni nikohga o'tishga tayyorlash uchun maxsus ma'ruzalar tashkil etishi lozim. Ular axloqiy, huquqiy va tibbiy mavzularda bo'lishi, nikoh to'g'risidagi qonunni, er-xotinning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berishga qaratilishi kerak. Maxsus adabiyotlarda bo'lajak er-xotin sifatida bir-birlarini yarim yildan bir yilgacha bilish eng maqbul muddat deb ko'rsatilgan.¹

Oila qonunchiligida nikohdan o'tish uchun ariza bergandan so'ng o'tish lozim bo'lgan bir oylik muddatni zarur hollarda qisqartirish huquqi berilgan. Ushbu normada, shuningdek, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish haqidagi qoidalarda qanday holat uzrli hisoblanib, belgilangan bir oylik muddatni qisqartirish uchun asos bo'lishi mumkinligi ko'rsatilmagan. Bu hol amaliyotda qo'yidagi turlarga hal qilinishiga sabab bo'lmoqda:

- agar nikohni qayd ettirish uchun ariza berganlar uzoq vaqt amalda birga yashagan bo'lsalar;
- nikohni qayd ettirish uchun ariza berganlarning er-xotinlik munosabatlaridan tug'ilgan bolalari bo'lsa yoki xotin homilador bo'lsa;
- kuyov yoki kelinning yaqin qarindoshlaridan biri og'ir kasal bo'lsa;
- ariza berganlardan biri uzoq muddatga chet elga yoki kelib-ketish qiyin bo'lgan joyga xizmat safariga ketaётgan bo'lsa;
- nikohni qayd ettirish uchun ariza bergan kuyov armiya safiga chaqirilgan yoki nikohni qayd etish uchun belgilangan muddatni qisqartirishga asos bo'ladigan boshqa sabablar uzrli sabab hisoblanib, bir oylik muddatni qisqartirishga asos bo'lishi mumkin.

Nikohni qayd etish muddatini qisqartirish yuzasidan talabnoma kelin va kuyovning har ikkisi tomonidan ariza bilan murojaat etilgan holda topshirilishi lozim. Arizaga muddatni qisqartirishga asos bo'ladigan hujjatlar ilova qilinishi kerak. Ariza va tegishli hujjatlarni qabul qilib olgan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi mudiri muddatni qisqartirish yoki rad etishlik, agar qisqartirish lozim bo'lsa, necha kunga qisqartirishni aniq holatga qarab belgilaydi. Amaldagi Oila kodeksida bir oylik muddatni qisqartirish huquqi nikoh saroyi yoki baxt uyi mudiriga berilmagan, ammo ular tomonidan bu muddatni qisqartirish hollari tajribada hamon tez-tez uchrab turmoqda. Nikohni qayd etish muddatini uzaytirish nikohlanuv-chilarning birgalikdagi arizalariga binoan ko'rib chiqiladi. Ayrim hollarda yetarli asoslar bo'lgan taqdirda, shuningdek, FH DYo organining tashabbusi bilan uzaytirishi mumkin, lekin bu muddat uch oydan oshmasligi kerak.

Qonunchiligimizda nikoh tuzishning uchta sharti belgilangan bo'lib, jumladan, nikoh tuzishda tomonlar ixtiyoriy roziligi, tomonlarning nikoh yoshiga yetganligi va nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning bo'lmasligi kabilarga rioya qilinadi.

- nikohning ixtiyoriyligi - nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.

¹ Oila psixologiyasi. -T., "Shark", 2000. 107-b.

- Nikoh yoshi - erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

- nikoh tuzishga:

- loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;

- nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

- loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi.²

Er va xotin ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga egadir. Er va xotindan birining umumiy mol-mulkini tasarruf etishi bilan bog'liq bitim tuzilganda bu harakat boshqasining roziligiga ko'ra amalga oshirilayotganligini anglatadi. Er-xotindan birining umumiy mol-mulkni tasarruf etish yuzasidan amalga oshirgan bitimi boshqasining bunga roziligi bo'lmaganligi sababligina bildirgan talabiga binoan va faqat bitimni amalga oshirgan ikkinchi tomon amalga oshirilgan bitim yuzasidan er (xotin) rozi emasligini oldindan bilgani yoki bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan hollarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Er (xotin) o'zining nomiga rasmiylashtirgan umumiy ko'chmas mol-mulkni tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.

Qimmatbaho buyumlar va zebu-ziynatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar yani, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shu kabilar, garchi nikoh davomida er va xotinning umumiy mablag'i hisobiga olingan bo'lsa ham, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi.

Shuningdek, qonunchiligimizda nikoh shartnomasi tushunchasi mavjud bo'lib, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Ushbu hujjat nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin. Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Shartnoma yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritishga haqli.³

Mamlakatimizda har yili o'rtacha hisobda 300 mingdan ziyod nikoh qayd etilayotgan bo'lsa, 600 mingdan ortiq kishi nikoh oldi tekshiruvidan o'tadi. Ammo, nikohdan ajralishlar soni

² O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi-<https://www.lex.uz/acts/104720>.

³ O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi-<https://www.lex.uz/acts/104720>.

yoshlar orasida barqaror o'sib borib, 2015-2019 yillarda jami 29,3 mingtadan 31,4 mingtagacha oshdi.⁴

Oilaviy ajralishlarning sabablari o'zaro shaxsiy munosabatlardagi kelishmovchiliklar, farzandsizlik, nogiron bolalar tug'ilishi, er yoki xotinning surunkali kasalligi bilan ham bog'liq. Bundan tashqari, yaqin qarindoshlar o'rtasida tuzilgan nikoh, yoshlarda nikoh tuzishdagi huquqiy bilimning yotarli yemasligi, tibbiy ko'rikdan sifatsiz o'tish yoxud nikoh qayd etish muddatini uzli sabablarsiz buzib oila qurish kabi holatlar ajrimlar sonini oshirmoqda.

Aynan shunday vaziyatlarga barham berish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Shu maqsadda 2003 yil 23 avgustda Hukumatning "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 365-sonli qarori qabul qilingan. Biroq nikohdan oldingi tibbiy ko'rikdan o'tishdagi tizimli muammolar mavjudligi, yoshlarning munosabati jiddiy emasligi, tibbiy ko'riklar formal o'tkazilishi, shifoxonalarda tegishli mutaxassislar hamda moddiy-texnika bazasi yetarli emasligi kelgusida oilalarning mustahkamligiga hamda tug'ilayotgan farzandlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy Majlis Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamda "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2019 yil respublikaning 8 ta hududida 842 nafar respondent ishtirokida nikohgacha bo'lgan tibbiy ko'rik yuzasidan o'tkazilgan so'rov natijalari ham sohadagi muammolarni yaqqol ko'rsatgan. So'rov natijalariga ko'ra respondentlarning 88,1 foizi o'z xohishi bilan tibbiy ko'rikdan o'tishini, qolgan qismi kasalliklarni to'liq aniqlay olmasligi sababli tibbiy ko'rikdan o'tish istagi yo'qligini bildirgan. Ishtirokchilarning 80 foizi tibbiy ko'rikdan qator muammolar bilan o'tganligini, xususan, 42,5 foizi tibbiy ko'rik juda ko'p vaqt olishini malum qilgan.

Ushbu muammoli holatlarni bartaraf etishda avvalambor, o'sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy ong va madaniyatini o'stirishga ko'proq etibor qaratish lozim. Tibbiy ko'rikdan o'tish jarayonida ham nikohlanuvchi shaxslarning etiborli bo'lishi, masullarning bunday holatlarga befarq qaramasligini kuchaytirish darkor. Shunday holatlarni oldini olsh maqsadida nikohlanuvchilarga ham masul shifokorlarga ham alohida "Nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tish, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tkazish qoidalarini buzish" deb nomlanuvchi norma bilan mamuriy tartibda javobgarlik belgilash lozim.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, nikoh va oila munosabatlari sohasida va oila institutini rivojlantirishda yangidan qabul qilinadigan qonun, qoida va normalarda bugungi va ertangi kunimizning talablarini aks ettirish, amaldagi qonun hujjatlariga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, bu masalaga jamiyatimizning e'tiborini yanada kuchaytirish lozim. Shuningdek, endi paydo bo'lgan, katta umid bilan hayotga qadam qo'yayotgan yosh oilani moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash, ularga ko'mak, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berish, bularning barchasi uchun nafaqat ota-onalar, birinchi navbatda davlat va jamiyatimiz birdek mas'uldir. Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk, o'z mustaqil fikriga ega, oqni qoradan ajratishga, taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, ularning sog'lig'ini asrash, hayotga yo'llashda oilaning o'rnini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son) <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat vaqti 2024.07.14)
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi <https://www.lex.uz/acts/104720> (murojaat vaqti 2024.07.14)

⁴ Nikohlanuvchi yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish samaradorligini oshirish bo'yicha davra suhbat - <https://www.uzdaily.uz/uz/post/6794>.

3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/111189> (murojaat vaqti 2024.07.14)
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarori. Toshkent sh. 2011 yil 20 iyul, 06-son <https://lex.uz/docs/2414114> (murojaat vaqti 2024.07.14)
5. Nikohlanuvchi yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish samaradorligini oshirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborilishi munosabati bilan o'tkazilgan davra suhbat. <https://www.uzdaily.uz/uz/post/6794> (murojaat vaqti 2024.07.14)
6. Oila psixologiyasi. -T., "Shark", 2000. 107-b. (murojaat vaqti 2024.07.14)
7. "Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori - (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2023 y., 09/23/550/0793-son; 05.03.2024 y., 09/24/110/0184-son) <https://lex.uz/docs/6638940> (murojaat vaqti 2024.07.14).
8. "Oila va nikoh munosabatlari – muqaddas qadriyat" - D. Djavliev, "Adolat" milliy-huquqiy axborot markazi bosh maslahatchisi. <https://adolatmarkazi.uz/uz/news/news/oila-va-niko-munosabatlari>. (murojaat vaqti 2024.07.14).



INNOVATIVE
ACADEMY